



MUHAMMAD YUSUF SHE‘RLARINING ADABIYOT DARSLARIDA O‘QITILISHI VA YOSHLAR ORASIDA MILLIY XARAKTERNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Pazliddinov Sherzodbek Qurbonovich,

*Namangan viloyati Davlatobod tumani MMTBga qarashli 64-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207565>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she‘rlarini umumta‘lim maktablarining adabiyot darslarida o‘qitilishi hamda ularning yoshlar orasida milliy xarakterni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shoir she‘rlarida ifodalangan vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat va milliy qadriyatlar kabi g‘oyalar yosh avlodning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi yoritib beriladi. Tadqiqot davomida Muhammad Yusuf ijodining zamonaviy ta‘lim jarayonidagi ahamiyati, o‘quvchilarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdagi roli o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Muhammad Yusuf, adabiyot ta‘limi, vatanparvarlik, milliy xarakter, yoshlar tarbiyasi, milliy g‘urur, milliy qadriyatlar, ma‘naviy tarbiya.*

Milliy xarakter biror millat yoki xalqning o‘ziga xos psixologik, axloqiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlaridan iborat bo‘lib, ularning tarixi, urf-odatlar, qadriyatlari, o‘zaro munosabatlari va atrof-muhitga bo‘lgan munosabati asosida shakllanadi. Milliy xarakter millatning umumiy xulq-atvorini, qarashlarini va turmush tarzini ifodalaydi. U ko‘pincha tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar ta‘sirida rivojlanadi va har bir xalqning o‘ziga xosligini, o‘ziga xos xulq-atvorini va orzu-umidlarini aks ettiradi.

Muhammad Yusuf o‘zbek adabiyotining zamonaviy namoyandalaridan biri bo‘lib, uning she‘rlari nafaqat badiiy go‘zalligi, balki tarbiyaviy va ma‘naviy ahamiyati bilan ham keng e‘tirof etilgan. Shoirning she‘rlari milliy g‘urur, vatanparvarlik, xalq qadriyatlari va o‘zlikni anglash kabi muhim jihatlarni aks ettiradi. Shoir she‘rlari, ayniqsa, adabiyot darslarida o‘qitilish orqali yoshlar orasida milliy xarakterni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy xarakterning shakllanishi yoshlarning milliy ongini rivojlantirish, o‘zlikni anglash va vataniga bo‘lgan muhabbatni oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda adabiyot darslari, ayniqsa, Muhammad Yusufning she‘rlari kabi asarlar, muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shoirning she‘rlari yoshlarni o‘z millatining tarixi, madaniyati va qadriyatlarini anglashga

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



yordam berish bilan birga, ularni vatanparvarlik, insoniylik, adolat, samimiyat kabi fazilatlarni rivojlantirishga undaydi.

Muhammad Yusufning she’rlari, o‘zbek xalqining madaniyatini, tarixini va milliy qadriyatlarini o‘quvchilarga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Shoirning asarlari o‘zining badiiy ifodasi bilan birga, milliy xarakterning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan chuqur ma’naviy va tarbiyaviy mazmunga ega. Shoirning she’rlari orqali yoshlar xalqning tarixiy an’analari, til va madaniyatining ahamiyatini anglab yetadilar. Muhammad Yusufning 8-sinf adabiyot darsligida berilgan “Vatanim”, “Mehr qolur” va “Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor...” mavzularidagi she’rlari yoshlarni o‘z millatiga bo‘lgan hurmat, mehr-muhabbat va sadoqatga chaqiradi. Bu o‘z navbatida, milliy g‘urur, vatanparvarlik va xalq qadriyatlariga hurmatni shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyot darslari yoshlarning dunyoqarashini, estetik didini va axloqiy qadriyatlarini shakllantiradigan eng muhim jihatlardan biri o‘quv jarayonlaridir.

Muhammad Yusuf tomonidan yozilgan “Vatanim” she’ri o‘quvchilarning milliy xarakter holatidan kelib chiqib vatanga bo‘lgan muhabbatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim.
O‘zim xoqon,
O‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim.
Yolg‘izim,
Yagonam deymi,
Toppingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim... [1:9]

Muhammad Yusufning she’rlari aynan shu jarayonda yoshlarning milliy xarakterni shakllantirishda, ularda o‘zlikni anglash va milliy ongini yanada rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Shoirning ona yurtidan tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq. U bir aka bo‘lib, bir o‘g‘il bo‘lib bu mehrga javob bergisi, agar shu yurt “o‘g‘lim”, deya unga mushtoq bo‘lsa, har qanday mushkulot qarshisiga chiqqisi, kelgusida padarkushlardan kelajak ulug‘beklarini pana qilib quchgisi keladi. [2:302]



Muhammad Yusuf she’rlari nafaqat badiiy tomondan, balki tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. O‘quvchilar shoir she’rlari orqali o‘z millatining qadriyatlariga, ona tiliga bo‘lgan hurmatni oshiradilar. O‘zbek millati va uning madaniyati haqida o‘quvchilarga ko‘proq tushuncha beradi. Shoirning she’rlari nafaqat go‘zal adabiy turlarni, balki milliy madaniyatni, tarixni, urf-odatlarini hurmat qilishni, o‘zligini anglashni targ‘ib qiladi. Adabiyot darslarda o‘quvchilar shoirning she’rlari orqali milliy qadriyatlarni o‘rganadilar va bu ularda milliy xarakterning asosiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Bu hayotda inson kabi yashar ekanmiz, albatta vatanga ota-onaga, yor-u do‘stlarga mehr muhabbat bilan hayot kechirishimi lozim va bu borada yoshlarga ibrat bo‘lishimiz kerak. Muhammad Yusuf tomonida yozilgan “Mehr qolur” she’ri esa bu borada bizlarga ona vatanga bo‘lgan mehr va sadoqatning yanada oshishiga xizmat qiladi.

O‘tar qancha yillar to‘zoni,
Yulduzlar — ko‘z yoshi samoni.
O‘tar inson yaxshi-yomoni,
Mehr qolur, muhabbat qolur.
Qorachug‘da porlagan o‘sha,
Iqboliga chorlagan o‘sha,
Dunyoni tor aylagan o‘sha —

Mehr qolur, muhabbat qolur.[3:200]

Hayotning har qanday holatlarida insonning yaxshiligi va yomonligi o‘tsada, lekin mehr va muhabbat doimo qoladi, degan ma’no mavjud. Mehr-muhabbat – bu insoniyatning eng muhim va abadiy tuyg‘ulardan biridir, va bu tuyg‘ular vaqt o‘tishiga qaramasdan inson qalbida qoladi. Mehr-muhabbat ota-onalarning farzandlariga farzandlarning esa ota-onalariga bo‘lgan chinakam muhabbatidadir. Yoshlarimiz har qanday holatlarda ham ona yurtini va ota-onalarini asrab-avaylashlari lozim.

Odamni odam qilib turgan, uning hayotiga insoniy mazmun baxsh etadigan inja tuyg‘ular, avvalo, mehr va muhabbatdir. Shu tuyg‘ular tufayli olamda hayot davom eta- di, tiriklik tantana qiladi. Zero, ota-onaning farzandga mehri, akaning singilga achinishi, do‘stning do‘stga madadi, yigitning qizga muhabbati dunyoni tutib turgan abadiy tuyg‘ulardir.[4:304]

Shoirning she’rlarida o‘z xalqiga, yurtiga, ona tiliga bo‘lgan sevgisi, vatanparvarlik va samimiyat kabi insoniy fazilatlar asosiy o‘rinda turadi. Shoirning

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



she'rlari yoshlarni birinchi navbatda o'z millatining tarixiga, madaniyatiga hurmat bilan qarashga, undan faxrlanishga undaydi. Ular she'rlarda ifodalangan g'oyalarga asoslanib, o'z xalqi va vataniga xizmat qilishni, uning qadriyatlarini saqlashni o'rganadilar. Shoirning vatan haqida yozgan she'rlari yoshlarni yurtni sevishga, uning go'zalligini va kuchini anglashga chaqiradi. Bu yoshlarning milliy xarakterning shakllanishiga, ular orasida vatanparvarlik va milliy g'ururni oshirishga katta yordam beradi.

Shoirning “Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor...” she'rida yurtimiz ozodligi uchun qayg'urgan vatandoshlarimiz, bu yurt mustaqilligi uchun kerak bo'lsa jonini fido qilgan insonlar va ularning qilgan mehnatlarini bugungi yoshlar albatta qadrlashlari lozimligini anglab yetishlari kerak bo'ladi.

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor,
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.
Bag'rim o'rtar bir o'y bahor ayyomlar,
Oy botgan yoqlarga termulib shomlar.
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,
Fayzullodek mardi maydonlaring bor...[5:10]

Tarixiy harakatda ma'lum bosqichga yetgan millat shoiri ortga o'girilib, o'tmishni yodga oladi, uni anglamoqchi, anglaganlariga ko'ra xulosalar chiqarmoqchi bo'ladi. Chunki bu millat yangi tarixiy burilish oldida turibdi, bu tarixni yaratish uchun esa kechagi kun sarhisob etilishi shart: “Alhazar, alhazar, ming bor alhazar, Ana, yurishibdi kiyganlari zar. Qodiriyini sotib shoir bo'lganlar Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor...” Bu bilan shoir kechagi davrning fojialariga e'tiborni qaratib, undan kerakli, bugungi va ertangi kun uchun zaruriy o'gitlar chiqarishga undayotgandek bo'ladi. [6:121]

Muhammad Yusufning biz yuqorida tahlil qilgan she'rlarining barchasi zamirida yoshlar orasida milliy xarakterning shakllantirish va shu bilan birga ular orasida ona vatanimizga bo'lgan cheksiz hurmat va sadoqatlarini yanada oshirishga qaratilganligi asosiy maqsadimiz ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Qanchadan qancha shoir va yozuvchilarimiz ona yurtimizning mustaqil davlat bo'lishini yoshlarimizni o'qimishli bo'lishlari uchun ham barcha kuchlarini sarflashdi va jonlarini shu yurt ozodligi yo'lida fido qilishdi. Bugungi yoshlar bulardan to'g'ri



xulosalar qilishlari va vatan oldidagi burchlarini yurakdan ado etishlari kerakligini his qilib yashashlari lozim.

Xalqimiz bamisli samandar (olovda tug‘ilib, olovdan omon chiqadigan afsonaviy qush)dek barcha sinovlardan omon chiqdi, sharaf bilan chiqdi. Biroq bu kurashlar, ozodlikka bo‘lgan intilishlar, albatta, qurbonsiz, yo‘qotishlarsiz kechmadi. Millatning ne-ne bahodirlari, yurt ozodligini har narsadan ustun bilgan xalqning asl farzandlari shu kurash maydonlarida jon berdilar[7:306].

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusufning she‘rlarining adabiyot darslarida o‘qitilishi yoshlar orasida milliy xarakterni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shoirning she‘rlari nafaqat badiiy go‘zallik, balki ma‘naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Shoirning she‘rlari yoshlarni milliy qadriyatlarni, tarixni, madaniyatni anglashga, o‘z millatiga bo‘lgan g‘urur va muhabbatni oshirishga chaqiradi. Adabiyot darslarida uning she‘rlari va asarlarini o‘qitish orqali yoshlar milliy xarakterning asosiy fazilatlarini o‘zlarida rivojlantiradilar. Ularning vatanparvarlik, sadoqat, o‘zlikni anglash kabi sifatleri mustahkamlanadi va ular o‘z xalqining boy madaniy merosini hurmat qilgan holda, kelajakda uni saqlab qolish uchun xizmat qilishga intilishadi. Muhammad Yusufning she‘rlari yoshlar tarbiyasida mustahkam poydevor bo‘lib, ularning ma‘naviy va axloqiy dunyoqarashlarini shakllantiradi. Shoir she‘rlari adabiyot darslarida o‘qitilishi orqali yoshlar orasida milliy xarakterni shakllantirishning ahamiyati yanada ortadi. Shoirning she‘rlari o‘quvchilarda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va g‘ururni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning ma‘naviy va axloqiy tarbiyasini boyitadi. Ushbu jarayon, o‘z navbatida, yoshlarni o‘zligini anglashga va o‘z xalqining boy tarixiy va madaniy merosiga hurmat bilan qarashga undaydi. Muhammad Yusuf she‘riyati bugungi kunda ham yoshlar orasida unitilmasdan aksincha shoir she‘rlaridan yod olib ularning ma‘no mazmuniga e‘tibor qaratgan holda yurtga mehr va sadoqat bilan xizmat qilishda davom etib kelmoqdalar, bu esa yoshlarning ulkan marralarga erishishlariga shoir she‘rlari uzoq yillar davomida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf Alyorim qolur she‘riy to‘plam. Ziyo nashr nashriyoti Toshkent – 2019
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent: “PHAROS AMBITION” 2022
3. Мухаммад Юсуф. Сайланма. “ШАРК” НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ 2007
4. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2019
5. Ziyo. uz U. Hamdam. She‘riyatimizda Qodiriy an‘analari “Sharq yulduzi” jurnali, 2014-yil, 4-son